

**Migrantlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlarini ta'minlashga
doir xalqaro me'yorlar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlili****Eshmatova Sevinch Sherzod qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali migrantlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlarini ta'minlashga doir xalqaro me'yorlar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlili haqida bilib olishingiz mumkin.

XXI asr boshidan boshlab, global migratsion oqimlarning kuchayishi inson huquqlari bilan bog'liq dolzarb masalalarni yanada chuqurlashtirmoqda. Jumladan, migratsiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning sog'lig'i, ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi global miqyosda muhokama etilayotgan eng asosiy masalalardan biriga aylanib ulgurgan. Inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lgan sog'liqni saqlashdan foydalanish huquqi, migratsion holatidan qat'iy nazar, har bir inson uchun ta'minlanishi kerak bo'lgan asosiy ijtimoiy kafolatdir. So'nggi 50 yil davomida xalqaro migratsiyaning hajmi va miqyosi keskin oshdi. 2020-yil holatiga ko'ra, Jahon miqyosida 280 milliondan ortiq xalqaro migrantlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati sog'liqni saqlash xizmatlariga to'laonli kirish imkoniyatidan mahrumdir.

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar migratsiyaga nisbatan turlicha siyosat yuritmoqda. Biroq, xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan universal standartlar migrantlarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ular uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, sog'liqni saqlash tizimlarida diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillarni umumiy qadriyat sifatida



belgilamoqda. Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi va boshqa xalqaro mexanizmlar bu yo‘nalishda muhim nazariy-huquqiy asoslarni shakllantirgan.

U ilk bor xalqaro miqyosda 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan va e‘lon qilingan,

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 25-moddasida quyidagicha mustahkamlangan:

*“Har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga borliq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta‘minlanish huquqiga egadir”.*¹

Ushbu norma nafaqat milliy davlatlar, balki xalqaro hamjamiyat zimmasiga ham aholi, shu jumladan migrantlar uchun sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish kafolatlarini yaratish majburiyatini yuklaydi. Bu prinsip xalqaro huquqiy hujjat – **“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (ICESCR, 1966)”**ning 12-moddasida² yanada kengroq asoslangan bo‘lib, davlatlarga o‘z hududidagi har bir shaxs uchun, shu jumladan, migrantlar uchun ham, maksimal sog‘liq darajasiga erishish imkoniyatini yaratish majburiyati yuklatilgan bo‘lsa, **Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti** migrantlarning sog‘lig‘i bo‘yicha maxsus qarorlar xususan, “Resolution WHA 61.17, 2008”ni qabul qilgan bo‘lib, bunda tibbiy xizmatlar migrantlarga ham “universal muomala” asosida taqdim etilishi shartligi belgilangan.³

Shuningdek, **Xalqaro migratsiya tashkiloti** 2010-yildan boshlab sog‘liqni saqlash bo‘yicha transchegaraviy yondashuvlar konsepsiyasini ilgari surmoqda, bu orqali migrantlarning sog‘ligi nafaqat u yashayotgan, balki kelib chiqqan mamlakati uchun ham

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

² Международный Пакт об экономических, социальных и культурных правах. <https://lex.uz/docs/2686024>

³ Sixty-first world health assembly // https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/A61/A61_R17-en.pdf



xavfsizlik va barqarorlik masalasiga aylanganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Yevropa Inson huquqlari Sudi amaliyotida sog'liqni saqlash huquqining buzilishi ayniqsa deportatsiya bilan bog'liq masala – inson sha'niga qarshi muomala deb topiladi. Misol tariqasida D.v Birlashgan Qirollik, 1997-yil ishini olishimiz mumkin. Qiynoqlarning taqiqlanishiga oid Konvensiyaning 3-moddasida ko'zda tutilgan qiynoqqa tutilish yoki g'ayriinsoniy muomala ko'rish holatlarida ekstraditsiya qilmaslik qoidasi nafaqat jinoyatchilar yoki ayblanuvchilar uchun, balki chet elliklarning majburiy tashqariga chiqarish paytida ham amalga oshiriladi.⁴ Bunda agar mamlakatdan chiqarilayotgan shaxs jo'natilayotgan davlatda inson huquqlarining poymol etilishiga duch keladigan holatlarga ham tatbiq etiladi. Amaliyotda ham Yevropa inson huquqlari Sudi shu ishdan keyin majburan orqaga qaytarilayotgan inson jo'natilayotgan mamlakatda qiynoqlarga uchrashi ehtimoli bo'lsa, uning qaytarilishini taqiqlashga doir qoidani rivojlantirib kelmoqda. Misol uchun, sud, inson huquqlarining himoyalanih holati o'ta yomon bo'lgan vaziyatda (Ahmed v. Austria, 1997), sikh separatistining vatanida qiynoqqa uchrashi va g'ayriinsoniy muomala qilinishi ehtimoli bo'lgan holatda (Chahal v. the United Kingdom, 1997), OITS kasalligiga chalingan xastaning tibbiy muolaja darajasi past bo'lgan o'z mamlakatiga jo'natish (D v. the United Kingdom, 1997) masalasi ham Konvensiyaning 3-moddasiga zid kelishi ta'kidlab o'tilgan.

Inson huquqlari nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, **sog'liqni saqlash huquqi** faqatgina kasallikka chalingan shaxsga davolanish imkoniyatini taqdim etish emas, balki unga tibbiy xizmat ko'rsatish, zarur resurslar, salomatlikni saqlash, axborotga erkin kirish, oldini olish va profilaktika imkoniyatlarini ta'minlovchi keng qamrovli konsepsiyadir.

BMTning ixtisoslashgan qo'mitalari sog'liqni saqlash imkoniyatining mavjud bo'lishini quyidagi asosiy prinsiplar orqali belgilaydi:

- yetarli sog'liqni saqlash infratuzilmasi mavjud bo'lishi;
- jismoniy, iqtisodiy va axborot jihatdan xizmatlar migrantlarga ochiq bo'lishi;
- xizmatlar madaniy, til, diniy ehtiyojlarga mos bo'lishi;

⁴ Xalqaro huquq bo'yicha. BMT Xalqaro sudi ish amaliyoti materiallari. 2019. // <https://library-tsul.uz>



– xizmatlar malakali kadrlar va zamonaviy tibbiy texnologiyalarga asoslangan bo'lishi.

Xalqaro huquq shaxslarning migratsion maqomidan qat'iy nazar, asosiy sog'liqni saqlash xizmatlari shoshilinch yordam, yuqumli kasalliklar davosi, emlash kabilar migrantlarga taqdim etilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ammo amaliyotda migrantlarning quyidagi guruhlar o'rtasida farq qilinadigan jihatlar ham mavjud:

- *qonuniy migrantlar* to'liq tibbiy sug'urta tizimiga kiritilgan bo'ladi;
- *noqonuniy migrantlar* faqat favqulodda xizmatlar bilan cheklanishi mumkin;
- *qochqinlar* xalqaro huquq himoyasida bo'lib, ularga kengroq xizmatlar ko'rsatiladi.

Tibbiy xizmatlardan foydalanishda etnik, diniy, milliy yoki huquqiy maqom asosida farqlanish xalqaro huquq normalariga mutlaqo zid. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR) ning 2-moddasi va Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi 14-moddasi sog'liqni saqlashda har qanday ko'rinishdagi diskriminatsiyani taqiqlaydi. Bu, ayniqsa, migrantlar uchun muhim, chunki ularning sog'lig'i ko'pincha ijtimoiy ajratish, til to'siqlari va hujjatsizlik bilan murakkablashadi.⁵

G'arbiy Yevropa mamlakatlari ayniqsa, Germaniya, Fransiya, AQSH, Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) migratsiya oqimlarini asosiy qabul qiluvchilardan hisoblanadi. Bu davlatlar nafaqat xalqaro mehnat migrantlarini, balki qochqinlar va boshpana izlovchilarni ham keng qamrab oladi. Shu bois, ularning sog'liqni saqlash siyosati migratsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u yerda migrantlarning sog'liqni saqlash huquqini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar ishlab chiqilgan. Germaniya tajribasiga ko'ra, huquqiy jihatdan sog'liqni saqlash xizmatlari konstitutsiyaviy darajada himoyalangan. Asosiy qonunining 1-moddasida inson sha'ni daxlsizligi va uni himoya qilish davlatning majburiyati sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari, “Sozialgesetzbuch”⁶ – Ijtimoiy kodeksi 4-moddasi 1-qismiga ko'ra “har bir inson ushbu Kodeks doirasida ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqiga egadir” deb belgilab

⁵ European Court of Human Rights Council of Europe 67075 Strasbourg cedex France www.echr.coe.int

⁶ Sozialgesetzbuch (SGB I) Erstes Buch Allgemeiner Teil // <https://www.sozialgesetzbuch-sgb.de/sgbi/4.html>



qo'yilgan. Shuningdek, ushbu moddaning 2-qismida “Ijtimoiy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan har qanday shaxs qonun hujjatlarida belgilangan sog'liqni saqlash, uzoq muddatli parvarish, baxtsiz hodisalar va pensiya sug'urtasi, shu jumladan fermerlar uchun keksa yoshdagi pensiya olish huquqiga egadir” deb belgilab qo'yilgan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimi qanchalik rivojlangan bo'lmasin, migrantlarga xizmat ko'rsatishda huquqiy aniqlik, siyosiy barqarorlik va institutsional inklyuzivlik muhim rol o'ynaydi. Migrantlar uchun sog'liqni saqlash faqat huquq emas, balki ijtimoiy barqarorlik va jamoat salomatligining ajralmas qismidir. Germaniya, Fransiya va Skandinaviya davlatlari tajribasi migratsion maqomidan qat'iy nazar, sog'liqni saqlash xizmatlariga teng va adolatli kirish imkoniyatini ta'minlash – samarali sog'liqni saqlash siyosatining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu huquqning amalda ro'yobga chiqishi sog'liqni saqlash infratuzilmasi, iqtisodiy imkoniyatlar, madaniy moslashuvchanlik, til to'siqlari va huquqiy maqom bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish darajasiga bog'liqdir.

Shunday ekan, davlatlar migratsion siyosatini sog'liqni saqlash sohasidagi inklyuziv yondashuvlar bilan uyg'unlashtirgan holda, migrantlar uchun sog'liqni saqlash huquqini to'liq ta'minlashga intilishi lozim. Bu esa inson sha'nini hurmat qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida muhim bosqich hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948. // <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights> ;
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR), 1966 ;
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Resolution WHA 61.17 “Health of migrants”, 2008.
4. Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), *Health of Migrants – The Way Forward. Report of a Global Consultation*, Madrid, 2010.
5. Yevropa Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish Konvensiyasi, 1950 ;
6. D v. United Kingdom, European Court of Human Rights, Judgment of 2 May 1997.
7. Chahal v. United Kingdom, European Court of Human Rights, Judgment of 15 November 1996.
8. Ahmed v. Austria, European Court of Human Rights, Judgment of 17 December 1996.
9. Germaniya Konstitutsiyasi (Grundgesetz) – Inson sha'ni daxlsizligi.
10. Sozialgesetzbuch (SGB) – Ijtimoiy kodeks, Germaniya, SGB IV, §1–2.
11. BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari (OHCHR): *The Right to Health – Fact Sheet No. 31*, Geneva, 2008.
12. Bachmann, C. (2020). *Health care access for migrants in Europe: Legal frameworks and practical barriers*. International Journal of Migration and Health, 6(2), pp. 45–62.
13. Gushulak, B.D., Weekers, J., & MacPherson, D.W. (2009). *Migration and health in the European Union*. The Lancet, Vol. 373, Issue 9666, pp. 411–417.
14. UNHCR (BMT Qochqinlar agentligi), *Guidance on Ensuring Access to Health Care Services for Refugees and Asylum Seekers*, 2014.
15. European Union Agency for Fundamental Rights (FRA) (2015). *Migrants in an irregular situation: Access to healthcare in 10 European Union Member States*.